

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY DISKURSIDA TILNING MOHIYATI, IFODA USLUBI VA OBRAZ YARATISHDAGI ROLI

Nuraliyeva Ozoda Norboyevna

ISFT instituti Samarqand filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

Ismoilova Shaxnoza Ilxomovna

ISFT instituti Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada til — inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining mahsuli bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, badiiy adabiyotda alohida o‘rin tutishi haqida so‘z boradi. Har bir xalqning badiiy diskursi uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz badiiy diskursida tilning mohiyati, ifoda uslubi, obraz yaratishdagi roli va badiiy tasvir vositalarining o‘rnini tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatik mo‘ljal, kontekst, pragmatika, kommunikatsiya, tilshunoslik.*

Diskurs" atamasi ko‘p qirrali bo‘lib, tilshunoslikda matndan kengroq tushuniladi. U muayyan ijtimoiy vaziyatda aytilgan yoki yozilgan nutq birligi hisoblanadi. Badiiy diskurs esa adabiy matnlar orqali ifodalanadigan, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni tashkil etadigan madaniy va estetik hodisadir.

Til badiiy diskursning asosiy vositasidir [1]. U nafaqat axborot yetkazish, balki estetik, emotsiyal va obrazli ma’no yuklash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Demak, til — badiiy adabiyotning nafaqat tashuvchi, balki yaratuvchi kuchidir. Aytish joizki, pragmalingvistika tilshunoslik sohalari orasida muhim o‘rin egallaganligiga qaramasdan, hozirgacha uning maqomi va vazifalari haqida biron – bir yakdillikka erishish qiyin kechmoqda. Jumladan, nutqiy aktlar nazariyotchilari pragmatika tushunchasining qo‘llanish me’yoriga aniq izoh berish qiyin deb hisoblaydilar. Olimlarning fikricha, pragmatika nutqiy tuzilmalarning ma’lum vaziyatlarda qanday ma’no ifolashini o‘rganadi. Ingliz olimi pragmatikaning o‘rganish obyekti lisoniy shakllar va ulardan foydalanuvchi shaxslar munosabati ekanligini qayd etadi [2]. Bizningcha, pragmatikaning tadqiq obyektini belgilashda tildan foydalanishdan tashqari, uni tushunish masalasiga ham e’tibor berish muhimdir. Zero, so‘zlovchi (muallif) nazarda tutayotgan mazmun tinglovchiga aniq etib borgan taqdirdagina muloqot maqsadi amalga oshishi ta’milanadi. O‘zbek adabiyotida til qadimdan obrazlilik, poetik musiqiylik va xalqona rang-baranglik bilan ajralib turgan. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, O’tkir Hoshimov singari yozuvchilar o‘z asarlarida

tilni nafaqat aloqa vositasi, balki milliy ong, tarixiy xotira va ruhiyat ifodasi sifatida qo'llaganlar [3]. Navoiy g'azallarida til orqali yaratilgan obrazlar, ramziy ifodalar va metaforalar orqali ma'naviy olam tasvirlanadi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida esa hayotiy, xalqona tilda inson qalbining nozik kechinmalari aks etgan. O'zbek badiiy diskursining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu — tilning ko'p qavatli semantik strukturasidir: tashqi (yuzaki) ma'no, ramziy ma'no va ruhiy-emotsional qatlam. Pragmalingvistik tadqiq obyekti haqida so'z borayotganida ushbu yo'nalishni umumiy tilshunoslikning ma'lum bir sohasi sifatida qarash kerakmi yoki uning ko'pqirrali tahlil olib boruvchi amaliy tilshunoslik doirasida qoldirish ma'qulmi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Fikrimizcha pragmalingvistikaning turli jihatlarini bir – biridan keskin ajratib qarash muammo tug'diradi [4]. Shuning uchun J.Vershurenning "Understanding Pragmatics" asarida bildirilgan nuqtai nazar istiqbolli tuyuladi. Olim pragmatikani "lisoniy hodisalarni ularning turli nutqiy xatti – harakat shakllarida qo'llanishining kognitiv, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini" o'rghanish maqsadini ko'zlovchi fan sifatida baholaydi [5].

Tilshunoslik an'anaga binoan fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika kabi qismlarga ajraladi. Ammo pragmatikani ushbu qismlar bilan bir qatorda qo'yib bo'lmaydi. "Pragmatika fonolog, morfolog, sintaksist, ma'noshunos, psixolingvist va sotsiolingvistlar o'rganib kelayotgan hodisalarga boshqacha nazar tashlashdir".

Har qanday sathga tegishli lisoniy hodisani uning qo'llanishi nuqtai nazaridan o'rghanish mumkin, demak, pragmatik mazmun barcha sathlarda ifoda topadi. Hatto, fonetik sathda ham so'zlovchilar tovushlarni turlicha talaffuz qilishadi [6]. Ushbu talaffuz me'yorlarini kuzatish asosida so'zlovchining qaysi ijtimoiy guruhga oidligini aniqlash imkonibor. Morfemalar, so'zlarning qo'llanishi ham pragmatik mo'ljalga ega va shunga nisbatan ular turlicha ma'no anglatadi. Biroq an'anaviy pragmatik tahlil yo'nalishida til birliklari qo'llanishining kontekstual asoslarini izchil va obyektiv ravishda yoritishning imkoniyati chegaralangan. Sintaksis sathida yagona bir hodisani turli sintaktik shakllar vositasida ifodalash imkoniyati mavjud.

Tilshunoslikda pragmatika insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonini kontekst asosida tushunishga imkon beruvchi muhum sohadir. Pragmatik mo'ljal esa nutq egasining maqsadini anglatadi. Bu maqsad faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki ularni qanday konteksda qo'llanayotganiga qarab aniqlanadi [7]. Pragmatik mo'ljal deganda, gapiruvchining ma'lum bir bayon orqali erishmoqchi bo'lgan maqsadi tushuniladi.

Kontekst- bu til birliklarining qanday sharoitda ishlatilayotganini bildiradi. Lingvistik kontekst- so'zlar yoki iboralarning atrofidagi til materiallari; Ekstralolingvistik kontekst- muloqot ishtirokchilari, joy, vaqt, ijtimoiy vaziyatdir [8].

Pragmatik mo'ljalni to'g'ri tushunish uchun kontekst muhim rol o'ynaydi. Gapiruvchi va tinglovchi orasidagi kontekstga oid umumiylar kommunikatsiyaning to'g'ri yo'nalishini ta'minlaydi. Masalan, kinoyaviy, istehzoli yoki metaforik nutq faqat kontekst asosida asosida anglash mumkin. Pragmatik mo'ljal va kontekst o'rtasidagi bog'liqlik muloqot samaradorligining asosi hisoblanadi. Kontekst bo'lmasa, gapiruvchining asl niyatini tushunish qiyinlashadi. Shunday ekan, tilshunoslikda ushbu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq va birgalikda o'rganishi zarur [10]. Pragmatika sohasining asoschisi Charlz Morris sintaksis, semantika va pragmatikani alohida sohalarga ajratayotib, asosiy uchta tushunchaga asoslangan edi: a) lisoniy belgi; b) belgi ifodalaydigan vogelikdagi narsa – hodisa; v) belgidan foydalanuvchi va uni izohlovchi shaxs. Olimning ta'bıricha, sintaksis doirasida lisoniy belgilarning o'zaro munosabati o'rganilsa, semantikada e'tibor belgilar va ular vositasida nomlanayotgan obyektlar munosabatiga qaratiladi, nihoyat, pragmatikaning o'rganish obyekti belgilar va ulardan foydalanuvchilar munosabatidan iboratdir [9]. Ch.Morris, shuningdek, pragmatik qoidalar lisoniy tuzilmalarni to'g'ri anglash uchun shart – sharoit tug'dirishini ham eslatib o'tadi. O'zbek pragmalingvisti Sh.Safarov uqtirib o'tganidek, "Muloqot maqsadi oddiygina axborot almashinish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan hamkorga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi ko'zlanadi [11]. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlarini e'tirof etganidek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biron narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini ham bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin". Pragmatik tahlilning muloqot ishtirokchisining mazmunni tushunish faoliyatini ham qamrab olishini va umuman ushbu sohaning ko'pqamrovli ekanligi ko'p marotaba ta'kidlangan haqiqatdir. Pragmatik mo'ljal va kontekst o'rtasidagi bog'liqlik muloqot samaradorligini asosi hisoblanadi. Kontekst bo'lmasa, gapiruvchining asl niyatini tushunish qiyinlashadi. Shunday ekan, tilshunoslikda ushbu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liqdir. Xulosa qilib aytganda, til har ikkala badiiy diskursda ham markaziy rol o'ynaydi. O'zbek adabiyotida til orqali milliy g'oya va qadriyatlar aks ettirilsa, ingliz adabiyotida u ko'proq individual ong va ichki kechinmalarni ifoda etadi. Til — bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki adabiy tafakkur va madaniyat ko'zgusidir. Har bir xalq o'z tili orqali o'zligini anglaydi, qadriyatlarini ifodalaydi va boshqalar bilan muloqotga kirishadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hakimov M. Pragmalingistik tadqiqotlar tarixi. – Farg'ona, 2020. – 148 b.

2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
3. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. – М.: Наука, 2010. – 152 с.
4. Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики: Монография. – М.: Флинта, 2014. – 230 с.
5. Levinson S. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
6. Nafisa, K., & Kamola, A. (2024). The Problem Of Teaching Students Lexical And Phraseological Features In Translation Studies Of Phrasal Verbs In English And Uzbek Languages. Eurasian Journal Of Academic Research, 4(10), 39-42.
7. Nafisa, K., & Matluba, D. (2023). Psychological And Pedagogical Aspects Of Research Into The Problem Of Bilingual Foreign Language Teaching. Conferencea, 31-34.
8. Tasheva, D. S., & Kubaeva, N. A. (2022). Modern educational technologies in the aspect of a student-centered approach in teaching foreign languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 12, 35.
9. Tasheva Dilorom, Djanzakova Matluba. The role of literary text in teaching the Russian language. International Multidisciplinary Conference. Manchester, England. 25th December 2023. -p.19. <https://conferencea.org>
10. Tasheva, D. (2022). Methods Of Using Didactic Materials To Enhance Activities In The Russian Language Lessons. Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(1), 325-328.
11. Tasheva D.S., Kubaeva N.A. Modern educational technologies in the aspect of a student-centered approach in teaching foreign languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Volume 12|, 2022. -p.35. www.geniusjournals.org